



OZODLIKDAN MAHRUM ETILGAN FUQAROLARNI JAMIYATGA QAYTA
MOSLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Parpiyev G'opirjon Abduqoxorovich

Farg'ona viloyati, Quva tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolarning jamiyatga qayta moslashuvi jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Sobiq mahkumlarning rehabilitatsiyasi jarayonida uchraydigan asosiy to'siqlar – ijtimoiy stigma, mehnat bozoridagi cheklovlar, oilaviy muammolar va psixologik inqirozlar alohida ko'rib chiqildi. Shuningdek, qayta moslashuv jarayonining samarali tashkil etilishida davlat siyosati, jamoatchilik institutlari, oilaviy qo'llab-quvvatlash va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolar, ijtimoiy moslashuv, rehabilitatsiya, stigma, jinoyatchilik, mehnat bozorida integratsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, davlat siyosati, jamoatchilik, ijtimoiy barqarorlik.

Bugungi davrda ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda jinoyatchilikka qarshi kurash, uni qisqartirish va oldini olish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi PQ-299-son "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularning bandligini ta'minlash, ijtimoiy moslashuviga hamda kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishiga amaliy ko'maklashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida bir qancha ijtimoiy loyihalar rejalashtirilayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etib, jazoni o'tab chiqqan shaxslarning jamiyatga qaytishi, ularning normal hayot tarziga integratsiyalashuvi ham dolzarb masala sifatida maydonga chiqyapti. Negaki, sobiq mahkumlarning jamiyatga qaytishi faqatgina ularning shaxsiy taqdiri bilan bog'liq masala emas, balki butun jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ozodlikdan mahrum etilgan fuqaro jazoni o'tab chiqqach, huquqiy jihatdan o'z majburiyatlarini bajargan hisoblanadi. Ammo, amaliyotda bunday shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvi murakkab jarayon. Bu masala ko'p qirrali va uzluksiz qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Shuni aytish joizki, jazoni o'tash davrida shaxsda bir qator ijtimoiy yo'qotishlar yuz beradi: mehnat ko'nikmalari susayadi, ta'lim va kasb-hunar o'rganish imkoniyatlari cheklanishi mumkin, oila va yaqinlar bilan aloqalar uziladi, jamiyatga qaytganda esa unga nisbatan



ishonchsizlik va stigmatizatsiya kuchli bo'ladi. Mana shunday omillar shaxsning normal hayotga qaytishini qiyinlashtiradi, ayrim hollarda esa uni yana jinoyat yo'liga qaytishga majbur qiladi.

Hozirda sobiq mahkumlarning ijtimoiy moslashuvi masalasi jahon miqyosida ham muhokama qilinayotgan dolzarb mavzulardandir. Rivojlangan chet el davlatlarda maxsus reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular shaxsning jamiyatga qaytishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: huquqiy asoslar takomillashtirilyapti, mahalla institutining o'rni kuchaytirilyapti, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda reabilitatsiya markazlari faoliyati yo'lga qo'yilyapti. Binobarin, amaliyotda hali ham muammolar mavjud bo'lib, ularga tizimli yechim kerak. Mavzuning dolzarbligi shundaki, agar qayta moslashuv jarayoni samarali tashkil etilmasa, sobiq mahkumlar jamiytdan ajralgan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlardan cheklangan holda qolib ketadilar. Bu esa takroriy jinoyatchilikning ortishiga, jamiyatdagi ijtimoiy ishonch va barqarorlikning susayishiga olib keladi. Biroq, agar ular jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalansa, sobiq mahkumlar mehnat resursi, soliq to'lovchi va oilaviy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanadilar. Shuning uchun, ularni jamiyatga qaytarish – ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Demak, ushbu maqolaning asosiy maqsadi – ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolarning jamiyatga qayta moslashuvi, integratsiyalashuvi jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda nazariy asoslangan yechim va takliflarni ilgari surishdan iborat. Ushbu jarayonda davlat, nodavlat tashkilotlar, mahalla va oilaning hamkorligi alohida ahamiyatga ega ekani maqolada alohida asosiy qism.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jamiyatga qayta qo'shilishi murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy jarayoni ekanligi haqida xabardormiz. Jazoni o'tab chiqqan fuqarolar turli qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning normal hayot tarzini shakllantirishiga to'sqinlik qilishini bilamiz. E'tibor berishimiz kerak bo'lgan asosiy masala, jamiyatda mavjud bo'lgan salbiy qarash va ishonchsizlik sobiq mahkumlarning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtirishidir. Ularning sodir etgan jinoyati xalqimiz tomonidan bir umr "tamg'a" sifatida qaraladi, natijada ular ko'pincha kamsitish va chetlatilishga duch keladilar. Bu esa insonning o'zini jamiyatda begona his qilishiga, ayrim hollarda esa qayta jinoyat sodir etishga moyillikning kuchayishiga olib keladi.

Sohada ko'zga tashlanadigan ikkinchi muhim muammo bu ishsizlikdir. Jazoni o'tab chiqqan shaxslar mehnat bozoriga kirishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Ish beruvchilar sudlangan shaxslarni yollashdan bosh tortishadi, bu ularning iqtisodiy mustaqilliklariga yomon, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ish topa olmaslik, oila va farzandlarini ta'minlashdagi qiynalishlar natijada qayta jinoyatchilik xavfini oshiruvchi omil bo'lib qolaveradi. Oilaviy munosabatlarning izdan chiqishi ham jiddiy muammo. Ozodlikdan mahrum etilgan davrda ko'plab shaxslar o'z yaqinlaridan ajralib qoladilar, ularning oila a'zolari bilan aloqalari kamayadi, ayrim hollarda esa butunlay uziladi. Jazodan qaytgach, oilaga qayta moslashish jarayoni murakkab bo'lib, ba'zan ajralishlar, bolalar bilan



munosabatlarning sovuqlashishi ham kuzatiladi. Oila qo'llab-quvvatlashining yetishmasligi sobiq mahkumning ijtimoiy rehabilitatsiyasini yanada qiyinlashtiradi.

Shuningdek, psixologik muammolar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahkumlik yillarida inson ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Jazoni o'tab chiqqan shaxs o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishi, jamiyatdan ajralganlik hissi bilan yashashi, ba'zan esa agressiv yoki befarq kayfiyatda bo'lishi mumkin. Ayniqsa, uzoq muddatli jazodan so'ng, shaxsning ijtimoiy rollarga qayta kirish jarayoni og'ir kechadi. Huquqiy va byurokratik to'siqlar ham sobiq mahkumlarning moslashuvini soddalashtirmaydi. Aksincha, qiyinlashtiradi. Ular ayrim kasblarda ishlash huquqidan mahrum bo'lishlari, kredit yoki ipoteka olish imkoniyatidan cheklanishlari mumkin. Ayniqsa, hujjatlarni tiklash, turar-joy masalalarini hal qilish kabi jarayonlarda ham byurokratik qiyinchiliklarga duch kelaveradilar. Davlat va jamoatchilik institutlarining yetarli darajada faoliyat yuritmasligi ham masalaning muhim qismidir. Qonunchilikda sobiq mahkumlarning qayta ijtimoiylashuviga oid asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda bu jarayon ko'p hollarda yetarli darajada samarali ishlab chiqilmagan. Rehabilitatsiya markazlarining yetishmasligi, mahalla va jamoat tashkilotlarining faoliyati sustligi natijasida sobiq mahkum ko'pincha yolg'izlikda qoladi va o'z hayotini qayta qurishda davlat yoki jamiyat tomonidan yetarli yordam ola olmaydi.

Umuman olganda, sobiq mahkumlarning jamiyatga qayta qo'shilish jarayonida duch keladigan muammolar juda ko'p va ularni bartaraf etish uchun davlat, jamiyat, oila va turli ijtimoiy institutlarning hamkorligi zarur ekanligini tushundik. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvi jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun tizimli, kompleks yondashuv zarurdir. Bu jarayonni samarali tashkil etish birinchi navbatda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham bo'lishi kerak. Negaki, sobiq mahkumlarning jamiyat hayotiga qayta qo'shilishi nafaqat ularning shaxsiy taqdiri, balki jamiyat barqarorligi, huquqiy davlat tamoyillarini qaror toptirish va jinoyatchilikning oldini olish bilan ham bevosita bog'liqdir.

Avvalo, jamiyatda sobiq mahkumlarga nisbatan mavjud bo'lgan salbiy qarashlarni yumshatish va ularning ijtimoiy mavqeini tiklashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar tashkil qilish kerak. Ommaviy axborot vositalarida sobiq mahkumlarning ijobiy misollarini targ'ib qilish, jamoatchilik ongida ularga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish muhim. Mahalla institutlari, jamoat tashkilotlari va diniy-ma'rifiy markazlarning ham bu jarayonda faol ishtiroki ta'minlanishi kerak.

Ikkinchidan, mehnat bozorida sobiq mahkumlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Bu borada davlat tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqish, ularga kasb-hunar o'rgatish, qayta tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini boshlashda imtiyozli kredit va grantlar ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ish beruvchilarni bunday fuqarolarni ishga jalb etishga rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish ham dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash ham muhimdir. Chunki sobiq mahkum uchun eng katta tayanch – bu oila. Shu sababli davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan oilaviy maslahatlar, psixologik treninglar va ijtimoiy yordam dasturlarini tashkil etish zarur. Oilaviy munosabatlarni tiklash va mustahkamlash, bolalar bilan aloqa o'rnatish sobiq mahkumning

ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik rehabilitatsiya ham qayta moslashuv jarayonida alohida o'rin tutadi. Jazoni o'tab chiqqan shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini tiklash, ijtimoiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijobiy hayotiy maqsadlar shakllantirish uchun psixologik maslahatlar, treninglar va rehabilitatsiya dasturlarini keng joriy etish lozim. Bu borada rehabilitatsiya markazlarining sonini ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy va byurokratik muammolarni hal qilish ham sobiq mahkumlarning moslashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ularning huquqiy imkoniyatlarini tiklash, zarur hujjatlarni tez va soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish, turar-joy bilan ta'minlash masalalarini yechishda davlat tomonidan qo'shimcha yordam ko'rsatish talab etiladi. Shu bilan birga, ayrim kasblarda ishlash huquqini cheklash masalalarini qayta ko'rib chiqish ham dolzarbdir.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, sobiq mahkumlarning jamiyatga qayta qo'shilishi kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mahalla va oila instituti birgalikda harakat qilishi lozim. Faqat shundagina sobiq mahkumlarning ijtimoiylashuvi muvaffaqiyatli kechib, ular jamiyatning faol a'zolari sifatida qayta shakllanishi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri uchun. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent: 2023 yil 20 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
6. World Health Organization (WHO). Social reintegration of offenders: Guidelines and practices. – Geneva, 2018.
7. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Introductory Handbook on the Prevention of Recidivism and the Social Reintegration of Offenders. – Vienna, 2012.
8. <https://lex.uz/docs/-6086474>